

TONG yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-YIL
5-DEKABR
N:49
(66850)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi



Surodlar muallifi: FAZLIDDIN



MUSHTARIY G'OLIB BO'LDI

Yer sharining tuzilishini ilk bor aniqlab bergan Abu Rayhon Beruniy bobomiz ekanligini yaxshi bilasiz. Amerika qit'asi borligi ham ilk bor u kishi tomonidan bashorat qilinganligi o'zingizga ma'lum.

Poytaxtimizdagi 198-maktabda ham ilm-fanga o'ta qiziqqan o'quvchilar ko'pchilikni tashkil etadi. 5-«B» sinf o'quvchisi Mushtariy Xalilova ulardan biri. Yaqinda «Kamolot»chilar tomonidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash maqsadida o'tkazilgan tanlovda o'zi yasagan Yer shari nusxasi uchun shaharda 1-o'rinni oldi.

RAHMATJON QURBONOV

Alisher Navoiy bobomiz ustozlarining kichikintoy farzandiga otdan tushib, hurmat ko'rsatganlarini yaxshi bilasiz.

Rahmatjon Qurbonov shu maktabda tasviriy san'at bo'yicha ustozlik qiladi. Hamza tumanidagi 18 ta tayanch maktablar qatorida 198-maktabda ham shu yo'nalish bo'yicha ish olib boriladi.

Rahmatjon o'z shogirdlarini juda qadrlaydi. Shu bo'lsim, maktab o'quvchilari yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritishmoqda.

QOVOQDAGI MINIATURALAR

Mo'jiza! Haqiqiy mo'jiza! Qovoqlar ham «gapira» boshladi. Ulardagi rang-barang miniaturalar kishini hayratga soladi.

Yana bir qiziq tomoni, Rustamjon Qurbonov o'z tomorqasida yetishtirgan qovoqlarga u kishining shogirdlari mahliyo bo'lib, turli xil naqshlar bilan bezak berishmoqda.

Yaqinda o'tkazilgan ko'rik-tanlovda 8-sinf o'quvchilari Rustam Arslonov hamda Hojiakbar Alimovlar qovoqlarga ishlangan miniaturalari uchun 1-o'rinni egallashdi.

MAKTABNING BIR KUNI

Biz poytaxtimizdagi 198-maktabda bo'lib, bu yerdagi dars jarayonlari bilan qiziqdik. Shahrimizning Hamza tumanidagi Katta Yangiobod ko'chasida joylashgan mazkur maktabda 600 nafar o'quvchiga 40 nafar malakali o'qituvchilar bilim berishadi. Bilim maskani 2008-yilda joriy ta'mirdan chiqib, mebel hamda o'quv laboratoriya jihozlari bilan to'liq ta'minlandi.



FAN OYLIGI

Maktabda noyabr oyida rus tili fan oyligi bo'lib o'tdi. Oylik doirasida ochiq darslar, ko'rik-tanlovlar hamda turli tadbirlar o'tkazildi. Oylik o'quvchilar tayyorlagan she'r va qo'shiqlar hamda raqslar bilan boshlandi. Konservatoriya talabalari ijrosidagi rus xalq musiqalari esa barcha yig'ilganlarda yaxshi taassurot qoldirdi.

SEVIMLI USTOZ

Maktabdagi tadbirlardan tortib, o'quvchilarning yurish-turishlari, davomatigacha qattiq nazorat qilib turadigan maktab direktori Nargiza opa Xolmuhammedova rus tili fanidan dars beradi. U shu maktabda tahsil olgan. 1989-yilda institutni tugatgach, o'zi o'qigan ilm dargohiga kelib, o'quvchilarga saboq bera boshladi. 2005-yilda direktor o'rinbosari, 2010-yilning avgustidan maktab direktori lavozimida ishlab kelmoqda. Sardor, Nodir, Shahboz – uch nafar farzandning mehribon onasi, turmush o'rtog'i bilan ularni tarbiyalab, voyaga yetkazmoqda. Opaning sa'y-harakatlari bilan maktab eng ilg'or laboratoriya hamda o'quv jihozlari bilan ta'minlandi. Yosh avlodning puxta bilim egallashida Nargiza opaning hissalar juda katta.

FAXR

Shu maktabning Dilfuza To'xtaxo'jayeva rahbarlik qilayotgan 6-«A» sinfida 31 nafar o'quvchi bor. U qaysi sinflarda dars bermasin, eng avvalo, o'quvchilar qalbiga yo'l topishga harakat qiladi.

– Har bir insonda ma'lum bir qobiliyat shakllanadi, – deydi Dilfuza. – Men o'quvchilarimning qaysi sohaga qiziqishlari borligini aniqlab, kasbga to'g'ri yo'naltirishga harakat qilaman...

Dilfuza To'xtaxo'jayeva o'quvchilarning ma'naviy dunyosini shakllantirishga hissa qo'shayotganidan faxrlanadi.

IBRAT

Lobar Shukurova 9-sinfning rahbari. U o'zining talabchanligi, tashkilotchiligi, mehnatsevarligi va shijoati bilan ajralib turadi. O'z ustida ko'p ishlaydi, o'quvchilar bilan muntazam ravishda tarbiyaviy soatlar, viktorinalar, bellashuvlar, ochiq darslar olib boradi. Boshqa o'qituvchilar bilan tajriba almashish maqsadida, ularning darslarini kuzatadi, ta'lim-tarbiya berishning eng ilg'or usullaridan boxabar bo'lishga intiladi.

XABARLAR

Oylik doirasida 6-«A» sinf o'quvchilari tomonidan ijro etilgan «Teremok» rus xalq ertagi barchaga birdek ma'qul bo'ldi.

* * *

Hamza tumani xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi xodimi Vasila opa Tolipova fan oyligini o'tkazishda bu maktab o'qituvchilariga yaqindan yordam berdilar.

* * *

Shu kunlarda maktabga tashrif buyursangiz, bezatilgan foye, ko'rgazma va devoriy gazetalarga ko'zingiz tushadi. Bunday tadbirlar o'quvchilar qalbidagi turli xalqlar madaniyatiga alohida hurmat bilan qarash tuyg'usini shakllantirishga xizmat qilishi shubhasiz.



QISHGA TAYYORMISIZ, DO'STIM?

– Qishga tayyor-misiz, do'stim?

Xuddi shu savolni kutib turgandek o'quvchilar bizni javoblarga «ko'mib» tashlashdi. Kimdir yangi palto olganini aytsa, yana biri ichi issiq etikchasi borligidan xotirjam ekanligini bildirdi. Bir o'quvchi kartoshkapiyozni g'amlab qo'yishganini aytib maqtanganida, barchamiz kulib yubordik. Ammo bu gaplardan biroz ko'nglimiz to'lmadi.

Aslida biz boshqacharoq tayyorgarlikni nazarda tutgan edik.

Hammamizning uyimizda gaz gurillab yonib turibdi. Ovqat pishib, choy qaynab bo'lgach, uni darhol o'chirishni unutib qo'yadingizmi? Oramizda uyni isitish uchun gazni yoqib qo'yadiganlar ham topiladi. Elektr quvvatidan ham ana shunday foydalanamiz. Sovuq kunlarda bizga orom bag'ishlayotgan bu ne'matlarning bizgacha yetib kelishi uchun necha-necha insonlar fidokorona mehnat qilayotganlarini his qilyapsizmi?

O'quvchi do'stim! Hech bir ne'mat bitmas-tuganmas emasligini yodingizda tuting. Gazdan foydalanib bo'lgach, uni darhol o'chirishni unut-mang. Uyingizda, sinfingiz yoki maktabingiz yo'laklarida kunduz kunlari chiroq yonib turishiga yo'l qo'ymang. Bu bilan siz oilangiz, qolaversa, yurtimiz iqtisodi uchun biroz bo'lsa-da, hissa qo'shgan bo'lasiz.

Yusuf
ABDULLAYEV



Kuni kecha «Barkamol avlod» respublika bolalar texnik ijodiyot markazi tomonidan iqtidorli o'quvchilar o'rtasida «Qonunni bilganga keng dunyo» shiori ostida ko'rik-tanlov o'tkazildi.



YANA BIR IMKON

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «Sog'lom avlod uchun» bolalar jamg'armasi, Respublika «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi hamda «Barkamol avlod» respublika bolalar texnik ijodiyot markazi hamkorligida o'tkazilgan bu tanlovda turli viloyatlardan kelgan 42 nafar o'quvchilar chizgan rasmlari hamda olgan fotosuratlari bilan ishtirok etishdi. Ijodiy ishlar hakamlar tomonidan munosib baholandi.

Erkin mavzu bo'yicha 1-o'ringa farg'onalik Foziljon Qo'shoqov, rasm chizish bo'yicha jizzaxlik Durdona Asrorova, fotoyo'nalishi bo'yicha samargandlik Behruz Abduhakimov loyiq topildilar.

Bunday tadbirlar yoshlarimizni milliy qadriyatlarni qadrlashga, yurtimiz go'zalligini turli ranglarda ko'rishga, Mustaqillik davrida erishilayotgan muvaffaqiyatlardan faxrlanishga o'rgatadi. Shuningdek, iqtidorlarini sinab ko'rishga imkon yaratadi.

MANZURA, ZUBAYDA tayyorlashdi



GIYOHVANDLIK BALOSI

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 313-maktabda «Giyohvandlik va uning asoratlari» mavzusida tadbir o'tkazildi. Unda mahalla noziri Savriddin Rahimov, Yunusobod tumani 52-oilaviy shifoxonasining shifokori Shahnoza Nuriddinova, maktab hamshirasi Ruxuza Jalilova, ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Sobir Mirsoatovlar ishtirok etishdi. Yig'ilishda so'zga chiqqan maktab direktori Gulnoza Mansurxonova bilim maskanida olib borilayotgan ishlar, mahalla noziri ayrim yoshlar orasidagi bo'layotgan tartibbuzarliklar haqida gapirishdi. Shuningdek, bugungi kunda dunyo xalqlarini qattiq tashvishlantirib kelayotgan giyohvandlik illati va uning mudhish oqibatlar haqida keng fikr-mulohazalar bildirildi.

Shifokor Shahnoza Nuriddinova so'zga chiqib, o'quvchilar OITV-OITS va ularning inson salomatligiga yetkazadigan zarari, kasallikning yuqish yo'llari va uni oldini olish to'g'risida atroflicha tushuncha berdi. Yig'ilish so'ngida ushbu masala bo'yicha qaror qabul qilinib, uni doimiy nazorat qilish direktor o'rinbosari Sobir Mirsoatov zimmasiga yuklatildi.

Muzaffar AHMEDOV



Qadimiy topilmalar



Armanistonning Vayozorsk viloyati hududida joylashgan «Areni – 1» deb nomlangan g'orda qazish ishlari olib borayotgan arxeologlar yoshi 5,9 ming yilga teng bo'lgan poxoldan tayyorlangan ayollar ko'yagini topdilar.

Irkutsk davlat texnika universitetining «Qadimiy texnologiyalar» ilmiy tadqiqot laboratoriyasi xodimlari Bodaybinsk tumanida o'tkazilgan yozgi ekspeditsiya natijasida yoshi 6120 yilga teng bo'lgan qalam topganlar.



Xitoy shahridagi Szyansi viloyatida qadimiy bronza qilich topildi. Mutaxassislar mazkur topilma o'zaro kurashayotgan qirolliklar davriga (miloddan oldingi 475-yil, milodiy 221-yil) taalluqli deb hisoblashmoqda.



R.JABBOROV tayyorladi

SOVG'ALI BO'LIHDI

Respublikamiz Konstitutsiyasi qabul qilingan kunga bag'ishlab bayram tadbirlari o'tkazish respublikamizning joylarida, jumladan, Bektemir tumanida ham yaxshi an'anaga aylangan. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi mazkur tuman bilan keng qamrovli hamkorlik ishlarini olib borayotgani bunday tadbirlarning chiroyli va ta'sirchan chiqishida alohida o'rinni tutmoqda. Yaqinda tumandagi 289-, 290-maktablarda bolalar nashrlari ijodkorlari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Mazkur maktablarning o'quvchilari shoir va yozuvchilarning yangi asarlari bilan tanishib, o'zlarini qiziqitgan ko'plab savollarga javob oldilar. O'z navbatida o'quvchilar ham davlatimiz qomusi haqida bilganlarini zukkolik bilan namoyish etib, agentlik tomonidan sovg'alar bilan taqdirladilar.

Asosiysi, bayram arafasida agentlik tomonidan tumandagi barcha maktablar, mahalla yig'inlariga agentlik tomonidan yangi nashrdan chiqqan kitoblar yetkazib berilayotgani barchani birdek quvontirmoqda.

O'z muxbirimiz

OLIIY QADRIYAT

Aziz bolajonlar, hademay yurtimizda katta bayram – Konstitutsiyamizning 19 yilligi keng nishonlanadi. Shu munosabat bilan mamlakatimizning turli go'shalarida bayram tadbirlari o'tkazilayapti. Shuningdek, poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 269-maktabning 4-«A» sinf o'quvchilari Qomusimizning ayrim moddalarini kichik hikoyachalar orqali sharhlashibdi, takliflar bildirishibdi. Siz ham ularning nechog'li bilimdon ekanliklariga baho bering-chi:

IKKI DO'ST

Murodjon bilan Odiljon juda ahil do'st. Ammo negadir ora-chora bir-birlari bilan gap talashib qoladilar. Murodjon yo'lida uchragan dov-daraxtlarning shoxlarini sindirar, yo'l chetiga ekilgan gullarni toptab tashlardi. Do'stining bu qiliqlari, tabiiyki, Odiljonga yoqmasdi. Bir kuni Odiljon o'rtog'ining qo'liga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kitobini tutqazdi va uning 50-moddasini ovoz chiqarib o'qishni so'radi. Murodjon Konstitutsiyaning bu moddasini o'qigandan so'ng, biroz o'ylanib qoldi va: «Endi hech qachon atrof-muhitga zarar yetkazmayman», dedi. Chunki Konstitutsiyamizning 50-moddasida: «Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar», deyilgan edi.

Elbek DONIYOROV

BAHROM HURMAT QOZONDI

Bahromning oilasi yaqinda yangi uyga ko'chib kelishdi va u uylari yaqinidagi maktabga qatmay boshladi. Tez orada yaxshi xulqi, a'lo baholari bilan barcha sinfdoshlari hurmatini qozondi. Ammo sinfdoshi Erkiniga bu yoqmasdi. U bu «a'lochi»ning ta'zirini berib qo'ymoqchi bo'ldi va darsdan keyin maktabning orqa tomoniga chaqirdi. U yerda bir to'lda bolalar bilan Bahromni qo'rqitib: «Agar mening gapimni ikki qilmasang, senga tegmaymiz, mabodo, buning aksi bo'lsa, mendan emas, akamdian ulushingni olasan», dedi. Ammo Bahrom uning gaplariga parvo qilmadi. Bir kuni maktabdan qaytayotgan Bahromni Erkinning akasi Zokir o'rtog'lar bilan tutib olib, rosa do'pposlashdi. Bahromni behush holda kasalxonaga olib ketishdi va u bir necha oy davolandi. Erkin, uning zo'ravon akasiga tegishli chora ko'rildi. Bunday noma'qulchiliklar farzandlarimizning o'z haq-huquqlarini yaxshi bilmasliklari oqibatida ro'y berdi.

Chunki Konstitutsiyamizning 24-moddasida: «Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir», deyilgan.

Azizbek ISMATOV



U n d a g'olib deb topilgan o'quvchilar Respublika ko'rik-tanlovida qatnashish huquqini qo'lga kiritdilar. – Mazkur ko'rik-tanlovni o'tkazishdan maqsad, o'quvchilarning huquqiy bilimlarini oshirish, Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatini puxta o'rgatish, uning insonparvarlik, demokratik va adolatparvarlik tamoyillarini yozma ishlar, tasviriy asarlar, ko'rgazmali vositalar orqali ifodalashdan iboratdir, – deydi O'zbekiston Respublikasi «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi raisining birinchi o'rinbosari Muhabbat opa Sherbo'tayeva. – Shuningdek, ta'lim muassasalarini ma'naviy-madaniy, huquqiy-axloqiy mazmundagi

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi va bir qator tashkilot va vazirliklar hamkorligida «Konstitutsiyamiz – baxtimiz poydevori» shiori ostida o'tgan respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichlari yakunlandi.

ko'rgazmali vositalar bilan jihozlanishini yo'lga qo'yishdir.

Ko'rik-tanlovning Samarqand viloyati bosqichida tasviriy-san'at yo'nalishi bo'yicha Pasdarg'om tumanidagi 74-maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi Sabina Umarova birinchi, Kattaqo'rg'on tumanidagi 17-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi Sidiqjon Rajabboyeva ikkinchi, Samarqand tumanidagi 5-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi Zarbonu Sharipova uchinchi o'rinlarga loyiq deb topildi.

O'quvchilarning tasviriy targ'ibot orqali Konstitutsiya moddalariga bergan ta'riflari, har bir moddani aks ettiruvchi suratlar, tasviriy ko'rgazmalarini ko'zdan kechirar ekanmiz, huquqiy bilimlarini yanada boyitishga intilayotganliklaridan quvondik.

Zero, Konstitutsiya davlatning qiyofasi va nufuzini belgilab beradigan qonunlar majmui, xalq tafakkuri va ijodining mahsulidir. OLMOS

HUQUQINI ANGLAGAN YOSHLAR

tilidan olingan bo'lib, «Nizom, qoidalar» degan ma'noni anglatadi.

O'rta Osiyoda ham XI asrda yashab, ijod etgan o'zbek shoiri Yusuf Xos Hojib ham o'zining «Qutadg'u bilig» asarida 4 ta asosiy qahramon Kuntug'di, Oyto'ldi, O'g'dulmish, O'zg'urmish timsolida davlat va uning boshqaruvi, jamiyat va unda shaxs tarbiyasi, komillik shartlari haqida to'xtalib o'tilgan.

Xalq og'zaki ijodining go'zal namunasi hisoblanmish bir rivoyatda ota, o'g'il va kelin munosabati yoritilgan bo'lib, unda qariyb, ishga yaramay qolgan ota kelinning istagi va o'g'ilning xohishi bilan olis tog'da, bir bolut daraxti ko'lankasidagi to'nkada qoldirib ketilishi tasvirlangan. Demak, bu asarda «Oilada bola huquqi» tamoyili asosida 66-

moddada berilgan «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburlar» degan qoidaga amal qilinishi lozimligi uqitirildi.

Milliylikni anglash bu milliy o'zlikni anglash demakdir. Milliylikni anglash uchun, eng avvalo, Qonun va uning hayotdagi o'rni hamda ijrosiga ahamiyat berish kerak. O'quvchilarga dars jarayonida bunday uzviy aloqadorlik haqida tushunchalar berib borish ularning huquqiy bilimlarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

X.BEGASHEV, D.NORMURODOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 11-maktab o'qituvchilari

– Tadbirga bir oy davomida tayyorlandik, – deydi 4-«V» sinf o'quvchisi Muslima Abdurahimova. – Dिल्фуza opa har darsda 6 bo'lim, XXVI bob, 128 moddadan iborat Konstitutsiyamizni muqaddasligini, unga hamma birdek amal qilinishini tushuntirib berdilar. Shu tariqa o'z huquq va burchlarimizni

anglab boryapmiz. Mana, men yodlagan she'r:

Ulg'ayaman qo'lda kitob,
Yo'l olaman maktabga.
Haq bolaning huquqi bor,
Maktabda o'qimoqqa.

Darhaqiqat, 4-«V» sinfida bilimga, san'atga mehr qo'ygan iste'dodli o'quvchilar ko'p ekan. Ulardagi iqtidorni to'g'ri yo'naltirish, kamol toptirishda esa ustozlarning xizmati katta.

Gulyuz BAHODIR qizi

BAXTIMIZ POSBONI

(Maktab sahnasida Konstitutsiya kunini nishonlash bo'yicha ssenariy)

Sahnaga boshlovchi qiz va bola chiqadi. Bugungi tadbirning nomi va maqsadini aytib, uni ochiq deb e'lon qiladi.

Dastlab bir o'quvchi asosiy qonunimiz bo'lgan Konstitutsiya qabul qilingan sana, uning mazmun-mohiyati haqida qisqacha ma'lumot beradi. (4-5 daqiqa).

Ilmdadir kuchimiz,
Ko'pdir huquq, burchimiz.
Barin etar sarhisob,
Bizning Bosh Qomus kitob!

Boshlovchi qiz Vatan haqidagi qo'shiqni e'lon qiladi. Qo'shiq tugagach, boshlovchilar orqada turib, Konstitut-

Gar turli millat, elmiz,
Do'st-inoq bag'rikengimiz.
Kamsitish yonbosish yo'q,
Qonun oldida tengmiz.

Ovoz: VII bob, 24-moddasidan: Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir.

To'qqizinchi o'quvchi:
Shod, ozod xalqimiz bor,
Ham g'urur, qadrimiz bor.
Shunday obod Vatanda,
Yashashga haqqimiz bor!

Ovoz: VII bob, 29-moddasidan: Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega.

O'ninchi o'quvchi:
Yaxshilikni o'ylaylik,
Yaxshilikni so'ylaylik.
To'g'ri so'zga to'siq yo'q,
Qonun bizni qo'llaydi.

Ovoz: IX bob, 37-moddasidan: Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalash huquqiga egadir.

O'n birinchi o'quvchi:
O'rganamiz kasb-hunar,
Derlar hunardan unar.
Erkin mehnat qilganning,
Albatta, baxti kular.

Ovoz: IX bob, 38-moddasidan: Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar.

O'n ikkinchi o'quvchi:
Kim ter to'ksa mehnatda,
Loyiq olqish, rahmatga.
Dam olishga haqlidir,
U albatta, albatta.

Ovoz: IX bob, 41-moddasidan: Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

O'n uchinchi o'quvchi:
Vatan deydi: ilm ol,
Bo'l aqlli, barkamol!
Ta'lim, hunar maskanin,
Istaganing tanlab ol!

Dilshod RAJAB



Poytaxtimizdagi 106-maktabda o'z kasbining fidoyilari bo'lgan jonkuyar ustozlar va ulardan saboq olib, kamolga yetayotgan iqtidorli o'quvchilar talaygina. Ayni damda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fan oyligi ham ko'tarinki ruhda o'tmoqda.

Shu maktabning 4-«V» sinfida Konstitutsiya bayramiga atab «Qomusimni bilmoq istadim» nomli tadbir bo'lib o'tdi. Bu sinf o'quvchilari – bo'lajak huquqshunoslar, magistrlar kiyimida Konstitutsiyadagi 5-, 6-, 41-, 50-, 125-moddalarni sharhlashdi. Baxtimiz qomusi haqida she'rlar o'qib, «Ona qadri, Vatan qadri» mavzuidagi sahna ko'rinishlarini mahorat bilan namoyish etishdi.

Bu she'rni Komron Hamidov jaranglatib o'qib berganda, ota-onalar: «Ustozingga balli!» deb un olqishlashdi.



Keyin bir o'quvchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kitobini olib chiqadi. Uning ikki yonida to'qqiztadan, jami 18 nafar o'quvchi saf tortadi. O'rtadagi o'quvchi Konstitutsiya kitobini boshi uzra baland ko'tarib, she'r boshlaydi:

Kitoblar ko'p dunyoda,
Barchasidan ziyoda.
Nur sochar misli oftob,
Bizning Bosh Qomus kitob!

Keyin ikki yonidagi o'quvchilar birin-ketin bir qadam oldinga chiqib, har biri to'rt qatordan she'r aytadi:

Birinchi o'quvchi:
Har so'zida ming ma'no,
Ham mehr, ham qudrat jo.
Qadrlidir doimo,
Bizning Bosh Qomus kitob!

Ikkinchi o'quvchi:
Adolatdan so'zlaydi,
Ezgulikni ko'zlaydi.
Teng-tenglikni istaydi,
Bizning Bosh Qomus kitob!

Uchinchi o'quvchi:
Huquqimiz qalqoni,
Erk, baxtimiz posboni.
Insoniylik dostoni,
Bizning Bosh Qomus kitob!

To'rtinchi o'quvchi:
Dadil bo'l, men bor, deydi,
Senga madadkor, deydi.
Qonun ustuvor, deydi,
Bizning Bosh Qomus kitob!

Beshinchi o'quvchi:

siyadagi ba'zi moddalarni baland ovozda navbatma-navbat o'qishadi.

Har moddadan keyin sahnadagi bolalardan biri o'sha moddaning ma'nosiga mos to'rt qatordan she'r aytadi.

Boshlovchi qiz ovozi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining I bob, 1-moddasi: O'zbekiston – suveren demokratik Respublika. I bob, 4-moddasi: O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili.

Oltinchi o'quvchi:
Ilk bobi der: Shuni bil,
O'zbekiston mustaqil!
G'urur to'la ko'ksingga,
Davlat tili – ona til.

Ovoz: II bob, 10-moddadan: O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublikasi Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Yettinchi o'quvchi:
Qalbimizning quvonchi,
Xalqimizning ishonchi.
Yurtboshimiz omondir,
Hamisha xalq tomondir!

Ovoz: V bob, 18-moddadan: O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Sakkizinchi o'quvchi:

Bir kuni xolam biroz tomog'i og'rigan uch yashar qizi bilan biznikiga kirib keldi.

– Shu Ra'noning tomog'i og'rib, bezovta bo'lyapti. Mening qo'limda yosh bolam bor, shuning uchun uni shifokorga ko'rsatolmayapman. Iltimos,

uni qishloq vrachlik punktiga sen olib borgan, – dedi men-ga. Men rozi bo'ldim. Bahorning so'nggi kunlari, havo toza, osmon musaffo. Yo'lda sekin ketyapmiz. Shu ketishda, chamasi bir soatlarda vrachlik punktiga yetib keldik. Hozirgina shifokor bir ish bilan chiqib ketganini aytishdi. U kishini biroz kutdik. Zerikib o'tirganimizni payqagan qorovul Botir aka bizga yaqinlashib, qo'lidagi olchalardan Ra'noga berar ekan, undan: «Isming nima, qizaloq?», deb so'radi. Ra'no qop-qora, ohuniki kabi yumaloq ko'zlarini jovdiratib, chuchuk tilida: «Ismim Na'no», dedi. Shu payt

MEHR

(Hikoya)



tomoq, quloq va burun bo'yicha mutaxassis shifokor ham darvozadan kirib kelib, bizni o'z xonasiga boshladi.

– Qani, kel-chi, seni bir tekshirib ko'raylik, – deya Ra'noni nazoratdan o'tkazdi. – Hamma a'zolari sog', faqat tomog'i biroz qizargan, – dedi menga yuzlanib shifokor. U bir parcha qog'ozga allaqanday dorilarning nomlarini yozib qo'limga tutqazarkan:

– Juda shirin qiz ekansiz. Shunday qizga shirinlik bermasak bo'lmaydi, – dedi-da, cho'ntagidan ikki dona shokolad chiqarib, Ra'noga uzatdi. U jajji qo'llari bilan shokoladni olarkan, chiroyli tabassum bilan «Yahmat», dedi-da, tomog'i og'rigani ham esidan chiqib, sochlarini silkitib, chopqillab ketdi.

Gulnoza
QARSHIBOYEVA,
Jizzax viloyati,
G'allaorol tumani,
Lalmikor
kasb-hunar kolleji
o'quvchisi



G'ALATI TUSH

Botirvoy ko'rganmish tush,
So'zladi bo'lib xomush.
Shundoq tush ham bo'larmi,
Bolalar tush ko'rarmi?

Aytib turganin yozdim,
Xatosi ko'pdir, sezdim.
Kelmasa sizga malol,
O'qib ko'ring bemalol.

Botir kezmish o'rmonda,
Janub degan tomonda.
Oldidan chiqdi arslon,
Quvib kelardi sirtlon.

Gepard imillab yurar,
Toshbaqa-chi, yugurar.
Sigir ucharkan tog'da,
Burgut o'tlarkan bog'da.

Qu-qular ekan bo'ri,
Xuddi tovuq singari.
Xo'roz esa uyillar,
Uzun boshi g'uyillar.

Vovillab qolar to'ng'iz,
Olgandayin biror is.
To'qayda yurar kuchuk,
Ovlar quyinni nechuk?

Shoxda o'tirib bug'u,
Aytar ashula – kakku.
Kakku esa Taygada,
Qatnashadi poygada.

Sichqon chiqar inidan,
Ushlab mushuk dumidan.
To'nka ustida ayiq,
Tinmay chaqarkan yong'oq.

Olmixonlar kovakdan,
Yig'ar asal, rangi oq.
Jirafa suvda suzar,
Delfin barglarni uzar.

Quyvon o'g'irlar sovun,
Zag'izg'on teshar qovun.
Qarang, sodda bechora,
Emish tulki, nachora.

Musicha ekan ayyor,
Aldashga doim tayyor.
To'rqovoqda tuyaqush,
Sayrar ekan boyaqish...

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

PEPPI UZUNPAYPOQ

Astrid LINDGREN, shved yozuvchisi

4. Peppining sirkka borgan

Bir kuni azonlab Annika bilan Tommi yugurgilab Peppinikiga kirib kelishdi.

– Peppi, Peppi! Shahrimizga sirk kelibdi. Yur, boramiz! – dedi Tommi.

Bu paytda Peppi ayvonda otini yasantirib o'tirgan edi. Uning yoliga ko'k, sariq, qizil marjonlar taqdi, peshonasi, quloqlariga ham rango-rang quroq lattalar bog'landi.

– Sirk deganing nima? – beparvo so'radi Peppi, – filmi, timsohmi, nima o'zi?

– Fil ham, timsoh ham emas, – dedi Annika, – sirk – u rosa qiziq tomoshaxona. U yerda otlar o'yinga tushadi, qiziqchilar hammani kuldiradi, chaqqon yigitlar dorga chiqib, sim ustida yuradi. Boramizmi, Peppi?

– Bilmadim, bilmadim, – dedi Peppi. Rostini aytсам, uncha hushim yo'qroq...

– Xo'p de, Peppi. Borsang, xursand bo'lasan.

– Bormasam-chi?

– Unda keyin afsus qilasan. Yuraqol. Uchala o'rtoq bir mazza qilib kelamiz. Mana, men chiptaga oyimdan pul ham oldim.

– E, hali pul ham to'lash kerakmi?

– Bo'lmasam-chi, tentakvoy. Bir necha soat tomosha ko'rasan-u, pul to'lamaysanmi?

Peppi otining dumiga ham latta bog'ladi-yu, dedi:

– Aslida o'sha sirkingni ot-potlari bilan sotib olsam ham bo'lardi-yu, mayli, sazanglar o'lmasin, senlarga sherik bo'la qolay. Qani, ketdik! Shoshmanglar, men puldan olay. U lip etib ichkariga kirdi, katta sandig'ini ochib, bitta tilla tanga oldi. Uch o'rtoq sirk binosi joylashgan manzilga qarab ketdilar.

Kassa oldida odam gavjum edi. Nihoyat, Tommilarning ham navbati keldi. Peppi patnisdek teshikdan boshini suqib so'radi:

– Xonimcha... e, uzr, xonimoyim, ot o'yin-gizni bir marta ko'rib chiqish uchun qancha pul to'lashingiz kerak?..

– Bu oladigan chiptangizga bog'liq, – dedi kassir xotin, – besh kronga olsangiz, birinchi qatorda o'tirasiz, uch kronga olsangiz, o'rta-roqda, xo'sh, bir kronga esa...

– Bo'ldi! – dedi Peppi, – bir kronligini o'zingiz olavering. Bizga eng oldingi qatordan joy berasiz. Mana!

Peppi kassirga tilla tanga cho'zdi.

Kassirning ko'zi chiqib ketdi. Nega desangiz, shuncha yil kassada ishlab, tilla tangani ushlab ko'rmagan edi. U rostdan ham bu tillami, degandek tangani aylantirib ko'rdi, tishladi, chiroqqa soldi. Gumoni qolmadi shekilli, Peppiga uchta chipta bilan bir xaltaga mayda pul berdi.

– Bu mis chaqalaringni boshimga uramanmi? – dedi Peppi achchiqlanib, – baquvvat bo'lsang, yiriklab ber, bo'lmasa o'zingga olib qolaver. Menda bunaqa tilla tanga to'lib yotibdi.

Kassir xotin yoshgina bo'laturib, tilla tanga o'ynab yurgan bu oriq, biyron qizning gapidan cho'chidimi, darrov mis chaqalarni kumushga aylantirib berdi.

Peppi, Tommi, Annika – uchovlon dumaloq mane sahnaning shundoq oldiga, birinchi qatarga borib o'tirdilar. Ular o'tirgan o'rindiq qizil baxmal g'illofli, yumshoqqina edi. Annika tepadagi dugonalariga qo'l silkitib, g'ururlanib qo'ydi. Peppi gunbazga o'xshash shiftga qarab so'radi:


– Nega u yum-yumaloq? Xuddi sahroyillarining o'toviga o'xshaydi-ya.

– Sirk shunaqa bo'ladi, Peppi, – dedi Annika bilag'onlik qilib.

– Yana deng, oldimizga qipiq yoyib qo'yibdi. Hammayoq changib ketadi-ku, shuni o'ylashmaydimi?

(Davomi bor)

Sa'dulla SIYOEYEV tarjimasi



Bahrom AKBAROV
(Davomi bor)

KASBIMIZ - FAXRIMIZ

Siz-u bizning bugungi tinch, xotirjam hayotimiz Qurolli Kuchlarimizning yurt sarhadlarida sergakligidandir. Shunday mas'uliyatli burchni sidqidildan ado etayotgan, tinchligimiz barqarorligiga kamarbasta o'g'lonlarimizni har qancha e'zozlasak arziydi. Ana shunday fidoyi farzandlar bor ekan, ertangi kunga ishonchimiz ortib boraveradi. Zero, Prezidentimiz, Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh qo'mondoni alohida ta'kidlaganidek: «... bugungi kunda O'zbekiston amalda o'zining zamonaviy, ixcham va harakatchan, yaxshi qurollangan, mamlakatimizning tinch va osoyishta hayotini himoya qilishga qodir bo'lgan milliy armiyasiga ega, deya aytish uchun barcha asoslarimiz bor».

O'zbekiston Respublikasi IIV Toshkent Oliy harbiy-texnik bilim yurtiga podpolkovnik Rustam aka Fayzullayevni yo'qlab borganimizda, yuqoridagi fikrlar nechog'li to'g'ri ekanligiga yana bir bor amin bo'ldik.

Bolalar, harbiy Rustam akangiz bilan yaqindan tanishgimiz kelayotgandir-a? Axir harbiy kiyimi o'ziga yarashib turgan, yuz-ko'zlaridan yurtga mehr, sadoqat balqib turgan bunday yigitlarimizga kimning ham havasi kelmaydi deysiz, to'g'rimi?!

Keling, endi Rustam akangizning bolalik xotiralari, bu kasbga qanday mehr qo'yg'anligi haqidagi hikoyamizni boshlaylik:

Rustamjon poytaxti-

mizning Olmazor tumanidagi 242-maktabda tahsil olgan. Bolaligidan futbolni jon-u dilidan sevgani bois, 6 yoshidanoq «Paxtakor» bolalar jamoasiga a'zo bo'lgan. Murabbiyi Viktor Jalilovdan sport sirlarini o'rgandi. Jamoada yaxshi hujumchi bo'lib,



murabbiylar nazariga tushdi. Futbolga bo'lgan ishtiyoq tirishqoq bolakayni katta futbolga ham yetakladi. Natijada, mamlakat yoshlar terma jamoasiga qabul qilindi. O'shanda Rustamjonning orzusi ushlagandi...

Ulg'aygach, harbiylik kasbini tanladi. Bu kasb ham sportchi yigit uchun begona emas edi.

– Oilada uch o'g'ilimiz, – deydi Rustamjon. – Otamiz Erkin aka avtomobillar muhandisi bo'lib ishlaydilar. Akam Ravshanjon Ichki ishlar vazirligi xodimi, ukam Sherzodjon esa Hamza tumani ichki ishlar bo'limida tezkor vakil sifatida faoliyat olib bormoqda. Otam barchamizni harbiy kiyimda ko'rishni orzu qilgan ekanlarmi,

akangiz bilan birga shu bilim yurtiga kirasan, deya maslahat bergandilar. Futbol bilan xayrlashishim mushkul bo'lsa-da, shu yerga o'qishga kirib, muvaffaqiyatli tamomladim.

Dastlab shaxsiy tarkibda, keyin guruh va batalyon komandiri bo'lib xizmat qildim. Bu yerda harbiy intizomga, harbiycha yashash va ishlashga o'rgandim. Bolaligimda sport bilan muntazam shug'ullanganimdan xursandman. Chunki sport tartib-intizomga, mas'uliyatga, yurtga, oilaga, ustozga mehrli bo'lishni o'rgatadi. Bilim yurtimizning ham terma jamoasi bor. Yigitlarimiz sportning futbol, voleybol, stol tennis, basketbol, qo'l jangi turlari bilan muntazam shug'ullanib boradilar. Yutuqlarimizdan faxrlanishga haqlimiz. Sababi, maskanimizda tahsil olayotgan mingdan ortiq yigitlar sport bilan do'stlashgan. Ochiq suv havzamiz va mini futbol zalimiz ular ixtiyorida.

Biz o'z tanlagan yo'limiz va kasbimiz bilan doimo faxrlanamiz.

Ustoz-shogird an'anasi bizga ajdodlardan meros. Yosh bo'lsa-da, Rustam akangizni ko'plab talabalar o'zlariga ustoz deb bilishadi. Maskur bilim yurti tarbiyaviy ishlar bo'limi boshlig'i yordamchisi G'ayratjon Ikmatullayev ham ana shunday serg'ayrat, o'z kasbiga mehr qo'yg'an shogirdlardan biri.

G'AYRATJONNING AYRATI

– Men Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi Javshar qishlog'ida tug'ilib o'sdim. Ota-onam maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaydilar. Bolaligimdan harbiycha kiyingan askarlarga havas qilardim. Katta bo'lsam, albatta, harbiy bo'laman, deya astoydil

niyat qilgandim va orzuimga erishdim. Men harbiylikni tanlab, adashmadim. O'z sevgan kasbimda yanada kamol topish, oliy o'quv yurtiga kirishni maqsad qilganman. Bilim yurtimizda bir qator to'garaklar, kafedralar, sport zallari, kutubxonalar mavjud. Ayni kunlarda 14-Yanvar – Vatan himoyachilari kunini milliy bayram sifatida

katta tantana bilan nishonlash uchun qizg'in tayyorgarlik ko'ryapmiz...

Muxtasar qilib aytganda, bu dargohda tahsil olayotgan mustahkam irodaga, tog'dek sabotga ega bo'lgan o'g'lonlarimizga chin dildan havas qildik.



EGIZAKLAR FOTOTANLOVI!



Bu qanday g'aroqib tanlov bo'ldi ekan-a, deysizmi?! Yodimda bor, bir necha yillar avval gazetada «Chapqaylar» tanlovini e'lon qilgan edik. Bu g'aroqib tanlovda o'quvchilarimiz katta qiziqish bilan ishtirok etishgandi. Tahririyatimizga kelayotgan maktublar oqimi ko'paygandan ko'payib, chapqaylar o'z qo'llari bilan yasagan, to'qigan buyumlarga to'lib ketgandi.

Egizaklar tanlovini ham gazetamizning yanada qiziqarli chiqishi, qolaversa, o'quvchilarimizni fotomuxbirlikka qiziqtirish maqsadida tashkil qildik.

Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 299-bog'chada tarbiyalanayotgan Artyom va Aleksey ismli egizak shirintoylarning surati bilan tanlovimizni boshlab beramiz.

Egizaklarning fotosuratlar ilova qilingan maktublaringizni kutib qolamiz.

DUGONAM BILAN FAXRLANAMAN

Suratdagi milliy qo'g'irchoqlarimizni taniyapsizmi? Albatta, deysizmi, barakalla, bular Zumrad, Qimmat, mehribon buvi... Ularni oddiygina ipdan xuddi jonlidek qilib to'qigan qiz mening dugonam Nozira Odilova bo'ladi.

Nozirada ilgakda to'qishga ishtiyoq juda kichikligidan uyg'ongani bejiz emas. Toshkent shahar

«Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti markazida «To'qish» to'garagi rahbari bo'lib ishlaydigan oyisi Dilfuza opa Tolipova uning murg'ak qalbida bu hunarga mehr uyg'ota olgan bo'lsa, ajabmas. Opaning juda ko'plab shogirdlari kabi Nozira ham avvaliga o'ziga qalpoq, sharf, nimcha to'qib, bu hunarning sirlarini chuqur o'rgandi. Keyinchalik «Zumrad va Qimmat», «Ur to'qmoq», «Oltin tarvuz» kabi ertak qahramonlarini to'qiy boshladi. Hozirgi kunda uning irod namunalari qator ko'rgazmalarda ko'pchilikning e'tiboriga tushib kelyapti.

Shunday iqtidorli, qo'li gul dugonam borligidan faxrlanaman.

Sevinch YORQULOVA,
Toshkent shahar

«Barkamol avlod»
bolalar ijodiyoti markazi
qoshidagi
«Yosh jurnalist» to'garagi
a'zosi



BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!



*Chizmadan bosh
harfni topib,
yo'ylar bo'yicha
o'qiy olsangiz,
Vatanimizdagi
jahonga mashhur
tarixiy shahar
nomini bilib
olasiz.*

Foziljon ORIPOV tuzdi



O'ZIMIZGA BOG'LIQ

Yurtimizga qirovli qish kunlari ham kirib keldi. Qish – keltirar tashvish, deganlaridek, bu faslning ham o'ziga yarasha tashvishlari, noqulayliklari bor. Ma'lumki, bu faslda issiqlikka bo'lgan talab, ehtiyoj yanada ortadi. Ayrim yurtdoshlarimiz yashash joylarida, ishxonalarda gazli va elektr asboblardan foydalanishga harakat qilishadi. Bunday moslamalarda nosozlik bo'lsa, yong'in kelib chiqish hollari ham kuzatiladi. Achinarlisi, o't balosi insonlarga moddiy zarar yetkazibgina qolmay, ularning hayotiga so'nggi nuqta qo'yilishiga ham sabab bo'lmoqda.

Bunday ko'ngilsizliklarni oldini olish maqsadida, respublikamiz bo'ylab 25-noyabr dan 25-dekabr gacha «Yong'in xavfsizligi oyligi» e'lon qilindi. Zero, o't balosiga qarshi hammamiz birgalikda kurashishimiz lozim. Ko'pchilik yurtdoshlarimiz isitish moslamalarini o'z bilganlaricha tuzatmaslik, ularning oldida yosh bolalarni nazoratsiz qoldirmaslik, sigaretani o'chirib tashlash kabi xavfsizlik qoidalarini yaxshi bilishadi. Lekin unga amal qilishmaydi. Arzimasdek tuyulgan bunday ehtiyot choralariga barchamiz amal qilsak, aziz umrimizni, atrofimizdagilarni, shirindan-shakar farzandlarimizni o't balosidan asrab qolgan bo'lamiz. Demak, xavfsizligimiz o'z qo'limizda!

Temur MADUMAROV,
Toshkent shahar, 12-XYOXO
24-XYOXQ qism boshlig'i



Muassislari:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hokumatga
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jam'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lg'in HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin
ORIPOV
Navbatchi:
Axtamqul
KARIM

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Svetlana INOMOVA,
Odina JAMOLDINOVA,
Jahongir MUSA'YEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manziliimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 30714
Buyurtma N: J 3291